



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzaevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzaevich, Raxmonberganov Surojbek Uktambov o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktambov o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улугбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbos Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GARVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zaripbayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamon Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахромов Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136
40.	MAMLAKATIMIZDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR <i>Baxtiyor Artikov</i>	139
41.	O'ZBEKISTONDA O'RTA VA KATTA BIZNESLARDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH VA ULARNI OLDINI OLIH MEXANIZMLARI <i>Boyniyozov Ro'zimbek G'ulomjon o'g'li, Abduqahhorova Maxliyo Albert qizi, Muradullayev Sarvar Muradulla o'g'li</i>	146

42.	NARXLAR STATISTIKASI KUZATUVLARINI DATA SCIENCE TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Odiljonov Ikromjon Komiljon o'g'li</i>	150
43.	BOZOR IQTISODIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH: NAZARIY EVOLYUTSIYA, MEXANIZMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR <i>Karimova Latofat Sadullayevna</i>	153
44.	TIJORAT BANKLARINING UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITAL YETARLILIGINI BOSHQARISH STRATEGIYASI <i>Mamadjonov Shukurillo Ibrohimjon o'g'li</i>	157
45.	OLIIY TA'LIMNING HUDUDIIY IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI: PANEL FIXED EFFECTS EKONOMETRIK MODEL ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) <i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	161
46.	RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA BYUDJET SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Salomov Abdusalom Ismatovich</i>	166
47.	УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ОГРАНИЧЕНИЙ <i>Тухтаев Максуд Мансурович</i>	169
48.	KO'P O'LCHOVLI KAMBAG'ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI <i>Urazbayev Raxmatjon Otajanovich</i>	172

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



BOZOR IQTISODIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH: NAZARIY EVOLYUTSIYA, MEKANIZMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Karimova Latofat Sadullayevna

Tashkent axborot texnologiyalari universiteti PhD, katta o'qituvchisi.

latofatkarimova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari, tarixiy evolyutsiyasi hamda zamonaviy mexanizmlari keng qamrovli tahlil qilinadi. A.Smitning klassik konsepsiyasidan tortib J.M.Keynsning aralashuv nazariyasigacha, M.Fridman monetarizmidan zamonaviy neokeynsiyanizm va institutsional iqtisodiyotgacha bo'lgan nazariy maktablar sistemali ravishda ko'rib chiqiladi. Bevosita va bilvosita tartibga solish mexanizmlari, pul-kredit siyosati, byudjet-soliq vositalari hamda tashqi iqtisodiy instrumentlar tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining 2017-2023 yillardagi islohotlar tajribasi ilmiy nuqta nazardan baholanib, zamonaviy davlat-bozor munosabatlari modeli taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, davlat tartibga solish, fiskal siyosat, pul-kredit siyosati, Keyns nazariyasi, monetarizm, neokeynsiyanizm, institutsionalizm, iqtisodiy islohotlar.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations, historical evolution and modern mechanisms of state regulation of the market economy. Theoretical schools are systematically reviewed, from the classical concept of A. Smith to the intervention theory of J.M. Keynes, from M. Friedman's monetarism to modern neo-Keynesianism and institutional economics. Direct and indirect regulatory mechanisms, monetary policy, budget and tax instruments, and external economic instruments are analyzed. The experience of reforms of the Republic of Uzbekistan in 2017-2023 is evaluated from a scientific point of view, and a model of modern state-market relations is presented.

Keywords: market economy, state regulation, fiscal policy, monetary policy, Keynesian theory, monetarism, neo-Keynesianism, institutionalism, economic reforms.

Абстрактный: В данной статье представлен всесторонний анализ теоретических основ, исторической эволюции и современных механизмов государственного регулирования рыночной экономики. Систематически рассматриваются теоретические школы, от классической концепции А. Смита до теории вмешательства Дж. М. Кейнса, от монетаризма М. Фридмана до современного неокейнсианства и институциональной экономики. Анализируются прямые и косвенные механизмы регулирования, денежно-кредитная политика, бюджетные и налоговые инструменты, а также инструменты внешней экономики. С научной точки зрения оценивается опыт реформ Республики Узбекистан в 2017-2023 годах и представлена модель современных государственно-рыночных отношений.

Ключевые слова: рыночная экономика, государственное регулирование, фискальная политика, денежно-кредитная политика, кейнсианская теория, монетаризм, неокейнсианство, институционализм, экономические реформы.

Kirish (Введение/Introduction).

Bozor iqtisodiyoti va davlatning tartibga solish funksiyasi zamonaviy iqtisodiy fikrning eng qadimiy va hali ham eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu munozara XVIII asrdan boshlab, ya'ni iqtisodiyotni alohida fan sifatida shakllanishi bilan bir vaqtda paydo bo'lib, ikki asr davomida turli nazariy maktablar o'rtasidagi keskin ilmiy bahslar markazida turdi. Adam Smitning «ko'rinmas qo'l» metaforasi bilan ifodalangan klassik liberal paradigma va Jon Meynard Keynsning davlat aralashuvini asoslab bergan inqilobiy g'oyalari o'rtasidagi ziddiyat XX asr o'rtalarida iqtisodiy siyosatning amaliy yo'nalishini belgilab berdi. Ammo 1970-yillardagi stagflyatsiya inqirozi monetarizm va neoliberalizm g'alabasiga olib kelib, davlatning iqtisodiy hayotdagi rolini yana bir bor qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. 2008 yilgi jahon moliyaviy inqirozi va undan keyingi «Buyuk depressiyadan keyingi davr» (post-Great Recession era) keynschilik g'oyalarning qisman tiklanishiga sabab bo'lib, «aqlli davlat» (smart state) va «tadbirkor davlat» (entrepreneurial state) kabi yangi kontsepsiyalarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi [1]. 2020 yilgi COVID-19 pandemiyasi va undan kelib chiqqan global iqtisodiy tanazzul esa davlat-bozor munosabatlarini yangi nuqta nazardan tahlil qilish zarurligini yanada oshirdi.

Ushbu ilmiy munozaraning amaliy ahamiyati shundaki, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish bosqichiga, institutsional salohiyatiga va tarixiy-sharoitii xususiyatlariga mos keluvchi davlat-bozor modelini qidirishga majbur. O'zbekiston Respublikasi 1991 yil mustaqillikka erishganidan so'ng bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi va bu jarayonda global iqtisodiy nazariya uchun boy amaliy material taqdim etmoqda. Ayniqsa, 2017 yilda Prezident Shavkat

Mirziyoyev rahbarligida e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» [2] davlatning boshqaruvchilik funksiyalarini keskin qisqartirish, xususiy sektor rolini kuchaytirish va raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu islohotlar nafaqat mamlakat ichidagi iqtisodiy transformatsiyani tezlashtirdi, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan ham katta qiziqish uyg'otdi. 2017-2023 yillarda amalga oshirilgan valyuta kursini erkinlashtirish, soliq islohotlari, xususiylashtirish dasturlari va erkin iqtisodiy zonalarni kengaytirish kabi chora-tadbirlar O'zbekiston iqtisodiyotining tuzilmasini tubdan o'zgartirdi.

Shu bilan birga, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni faqatgina davlatning iqtisodiy hayotdan chekinishi demak emas. Aksincha, zamonaviy iqtisodiy nazariya shuni ko'rsatadiki, bozorning samarali ishlashi kuchli va ishonchli davlat institutlarini, samarali huquqiy tizimni va mulkchilik huquqini kafolatlovchi muhitni talab qiladi [8]. Shuning uchun davlat va bozor o'rtasidagi optimal nisbatni topish bu nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham eng murakkab iqtisodiy siyosat vazifalaridan biridir.

Ushbu maqolaning maqsadi davlatning bozor iqtisodiyotidagi rolini nazariy evolyutsiya, mexanizmlar va zamonaviy yondashuvlar prizmasidan tizimli tahlil qilish, turli iqtisodiy maktablarning nuqta nazarlarini qiyosiy o'rganish hamda O'zbekiston Respublikasining 2017-2023 yillardagi iqtisodiy islohotlar tajribasiga ilmiy baho berishdir. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u klassik liberalizm, keynschilik, monetarizm, neokeynsiyanizm va institutsional iqtisodiyot maktablarining g'oyalari yagona tizimda tahlil qiladi va ularning o'zaro bog'liqligini hamda evolyutsiyasini ko'rsatadi. Amaliy ahamiyati esa

O'zbekiston iqtisodiy siyosatini ishlab chiquvchilar uchun nazariy tayanch va tavsiyalar ishlab chiqishda yordam berishiga umid qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review). Davlatning iqtisodiyotdagi rolini ilmiy jihatdan birinchi bo'lib sistemali tahlil qilgan Adam Smit o'zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida» (1776) [3] nomli asarida bozorning o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmi — «ko'rinmas qo'l» kontseptsiyasini ilgari surdi. Smitning ta'kidlashicha, har bir iqtisodiy sub'ekt o'z shaxsiy manfaatini ko'zlagan holda harakat qilayotib, o'zi sezmasdan jamiyat manfaatiga ham xizmat qiladi. Bu esa alohida koordinatsiyasiz, ya'ni davlat aralashuvsiz, muvozanatni ta'minlaydi. Smit fiziokratlar an'anasini yanada rivojlantirgan holda davlatning asosiy uchta vazifasini belgilab berdi: milliy mudofaa, adolat tizimi va jamoat ne'matlari. Uning fikricha, bu doiradan tashqaridagi har qanday davlat aralashuvi resurslarni noto'g'ri taqsimlanishiga, monopoliyalashuvga va oxir-oqibatda xalq farovonligining pasayishiga olib keladi [3]. Smit tashqi savdoda merkantilizmni qattiq tanqid qilib, erkin savdoning iqtisodiy samaradorlikni oshirishini dalillar bilan isbotladi.

D.Rikardo, J.S.Mill va boshqa klassiklar Smit g'oyalari rivojlantirib, davlatning iqtisodiyotdan cheklanishi zarurligini yanada mustahkam asoslab berdilar. Biroq bu nazariya XIX asr oxiri — XX asr boshlarida monopolistik kapitalizmning vujudga kelishi va bozor muvozanatining buzilishi bilan jiddiy tanqidga uchradi. 1929-1933 yillardagi Buyuk Depressiya klassik liberal nazariyaning asosiy e'tiqodini — bozor muvozanati avtomatik ravishda tiklanishi haqidagi postulatni — amalda rad etdi. Millionlab ishsizlar, qulab tushgan YaIM va bir necha yil davom etgan iqtisodiy tanazzul yangi nazariy tushuntirish talab qildi [4]. Aynan shu vaziyatda Jon Meynard Keynes «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) [5] asarida inqilobiy yangilik taklif qildi.

Keynsning markaziy argumenti shundaki, agregat talab (yalpi talab) iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish hajmi va bandlikni belgilovchi asosiy omildir. Bozor o'zi-o'zicha to'la bandlik muvozanatini ta'minlay olmaydi, chunki xususiy sektor investitsiyalari inqiroz davrida tushib ketadi va ularni davlat xarajatlari bilan qoplash zarur bo'ladi. Mashhur «multiplikator effekti» — davlat xarajatlarining ko'payishi YaIMni undan ko'p miqyosda oshirishi — zamonaviy fiskal siyosat nazariyasining poydevori bo'ldi [5]. Keynes nazariyasi AQShda F.Ruzveltning «Yangi kurs» siyosatida (1933-1939) amalda qo'llanildi va urushdan keyingi G'arb davlatlarida makroiqtisodiy boshqaruvning asosiga aylandi. XX asr o'rtalarida keynsiyalizm hukmron paradigmagacha aylanib, «Oltin o'ttiz yillik» deb nomlanuvchi barqaror iqtisodiy o'sish davrini ta'minladi.

1970-yillardagi stagflyatsiya — yuqori inflyatsiya va iqtisodiy tanazzulning bir vaqtda sodir bo'lishi — keynschilik modeli uchun jiddiy sinov bo'ldi. Milton Fridman boshchiligidagi Chicago maktabi bu hodisani davlatning haddan tashqari iqtisodiyotga aralashuvi va pul massasini noto'g'ri boshqarish natijasidir, deb izohladi [6].

Monetarizmning asosiy qoidasi — YaIM o'sishi sur'ati bilan mutanosib pul massasini o'sishini ta'minlash va fiskal siyosatning ahamiyatini cheklash. Fridmanning mashhur «k-protsent qoidasi» bo'yicha pul massasi yiliga 3-5 foizga barqaror o'sishi kerak, qolganini bozor o'zi hal qiladi [6]. Bu g'oyalar 1980-yillarda AQSHda Reyganomika va Britaniyada Tetcherizm siyosati orqali amalda qo'llanildi. Iqtisodiyotni tartibga solishni cheklash, davlat mulkini xususiy lashtirish, savdo to'siqlarini olib tashlash va daromad solig'ini kamaytirish — bu davr iqtisodiy siyosatining bosh yo'nalishi bo'ldi. Biroq Reyganomika faqat cheklangan muvaffaqiyat qozona oldi: YaIM o'sdi, ammo davlat qarzi ham keskin oshdi [1].

XX asr oxiri — XXI asr boshlarida iqtisodiy nazariyada muhim sintez yuz berdi. Neokeynsiyanlar (G.Mankiv, O.Blanchard va boshqalar) Keynes g'oyalari mikroiktisodiy asoslar bilan boyitib, yangi nazariy asos yaratdilar. Ular narx va ish haqi moslashuvchanligi (rigidligi) tufayli bozor o'z-o'zidan optimal muvozanatga erisha olmasligini mikrodarajada isbotladilar [7]. Institutsonal iqtisodiyot maktabi (D.Nort, O.Uilyamson) esa institutlar — qonunlar, normalar, an'analar — iqtisodiy rivojlanishning asosi ekanini ta'kidladi. Nortning xulqiga ko'ra, bozorning samarali ishlashi kuchli davlat institutlari va mulkchilik huquqini kafolatlovchi tizimni talab qiladi [8]. Shunday qilib, "kuchsiz davlat" bozor samaradorligini oshirmaydi, aksincha, kamaytiradi degan xulosa ilmiy jamoatchilikda keng tan olindi.

1-jadval. Iqtisodiy nazariy maktablarning taqqoslamasi¹

Nazariy maktab	Davlatning roli	Asosiy vositalar	Tanqidchilar
Klassik liberalizm (A.Smit)	Minimal — Ko'rinmas qo'l	Raqobat, bozor narxi	Keynschilar
Keynschilik (J.M.Keyns)	Faol fiskal intervensiya	Budjet xarajatlari, soliq	Monetaristlar
Monetarizm (M.Fridman)	Pul massasini nazorat	Pul-kredit qoidasi	Neokeynsiyanlar
Institutsonalizm	Qoidalar va institutlar	Qonunchilik, tartibga solish	Erkin bozor maktabi
Neokeynsiyanizm	Kontrtsiklik siyosat	Fiskal + pul-kredit	Avstriya maktabi

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Ushbu tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi. Birinchidan, qiyosiy-tarixiy tahlil metodi yordamida davlatni tartibga solish nazariyasining XVIII asrdan hozirgi davrgacha bo'lgan evolyutsiyasi kuzatildi. Ikkinchidan, sistemaviy tahlil metodi asosida tartibga solish mexanizmlari yaxlit bir tizim sifatida o'rganildi va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Uchinchidan, institutsional tahlil yondashuvi O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini baholashda qo'llanildi. To'rtinchidan, miqdoriy tahlil uchun O'zbekiston Statistika agentligi va Jahon banki ma'lumotlaridan foydalanildi [9]. Nazariy qism uchun iqtisodiyot fanining asosiy va zamonaviy darsliklari, indekslangan ilmiy jurnallar hamda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hisob-kitob materiallari ko'rib chiqildi.

Tahlil jarayonida induktiv va deduktiv metodlarning uyg'unlashuvidan foydalanildi: amaliy ma'lumotlardan nazariy xulosalar chiqarildi (induktiv), shu bilan birga nazariy qoidalar O'zbekiston holati misolida sinovdan o'tkazildi (deduktiv). Maqolaning nazariy qismi asosan birlamchi adabiyot tahlili, amaliy qism esa rasmiy statistik ma'lumotlar asosida yozildi.

Tahlil va natijalarlar (Analysis and results/Анализ и результаты).

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida davlatning bozorga aralashuvi zarurligini asoslaydigan bir necha turdagi «bozor muvaffaqiyatsizliklari» (market failures) ajratib ko'rsatiladi. Birinchisi tashqi ta'sirlar. Atrof-muhitni ifloslantirish tipik salbiy tashqi ta'sir bo'lib, bozor mexanizmi bu xarajatlarni avtomat tartibda hisobga olmaydi. A.Pigu soliqlari» orqali aralashishi va tashqi xarajatlarni ichkilashtirishi lozim [4].

Ikkinchisi - jamoat ne'matlari. Milliy mudofaa, yo'llar, ilmiy bilimlar - bularning barchasi «raqobatsizlik» va «chiqarib bo'lmaslik» xususiyatlariga ega. Xususiy sektor bunday ne'matlarni etarli miqdorda ishlab chiqarmaydi, chunki ulardan haq olib bo'lmaydi. Uchinchisi — axborot nosimmetrikasi. J.Akerlof «Limonlar bozori» [10] modelida ko'rsatgandek, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi axborot tengsizligi bozor muvozanatini buzadi. Sog'liqni saqlash, ta'lim va kredit bozorlarida bu muammo ayniqsa keskin.

To'rtinchisi - tabiiy monopoliyalar. Tarmoq tashkil etuvchi sanoatlarda (temir yo'l, elektr tizimi, gaz tarmog'i) o'rtacha xarajatlar hajm oshgan sari pasayib boradi, bu esa tabiiy ravishda monopoliyalashuvga olib keladi va davlat narxni tartibga solmasdan, raqobatni ta'minlab bo'lmaydi. Beshinchisi - tsiklik beqarorlik. Keynes ko'rsatganidek [5], xususiy sektordagi investitsiya dinamikasining o'zgaruvchanligi makroiqtisodiy tsikllarni kuchaytirib yuboradi va davlat kontrtsiklik siyosati zarur bo'ladi.

Bevosita tartibga solish usullari davlatning iqtisodiy jarayonlarga to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy-huquqiy ta'siri orqali amalga oshiriladi. Bu usullar, ayniqsa, iqtisodiy inqiroz yoki bozor tuzilmasi butunlay mavjud bo'lmagan sohalarida samarali bo'ladi.

Litsenziyalash va standartlash - bu usul orqali davlat ma'lum faoliyat turlarini faqat belgilangan talablarni bajargan sub'ektlargagina ruxsat etadi. Bu sifat kafolatini ta'minlaydi va iste'molchini himoya qiladi. Narx nazorati — inflyatsiya yoki monopol bozorlarida davlat yuqori chegara

¹ Muallif ishlanmasi

narxlarini (price ceilings) yoki pastki chegara narxlarini (price floors) belgilaydi. Kvotalar va litsenziyalari tashqi savdoni boshqarishda asosiy vosita bo'lib, mamlakatni tashqi raqobatdan himoya qiladi yoki eksportni rag'batlantiradi.

O'zbekistonda bevosita tartibga solish ayniqsa 1991-2016 yillarda ustun bo'lib, davlat valyuta kursini markazlashgan tartibda belgilagan, eksport va importga keng kvotalar qo'ygan hamda strategik tarmoqlarda narxlarni nazorat qilgan. 2017 yildan boshlab esa bu cheklovlarning muhim qismi bekor qilindi va bozor mexanizmi kengaytirildi [2].

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida bilvosita tartibga solish usullari ustun o'rinni egallaydi. Ular bozor mexanizmining harakatiga qarshilik ko'rsatmay, balki uning yo'nalishini o'zgartirish orqali ishlaydi.

Pul-kredit siyosati Markaziy bank tomonidan amalga oshirilib, uchta asosiy kanal orqali iqtisodiyotga ta'sir qiladi: foiz stavkasini o'zgartirish, majburiy zaxira me'yorini belgilash va ochiq bozor operatsiyalari. Foiz stavkasini kamaytirish kreditni arzonlashtiradi, investitsiyalarni rag'batlantiradi va agregat talabni oshiradi. Aksincha, foizni ko'tarib, inflyatsiyaga qarshi kurashiladi. O'zbekiston Markaziy banki 2019-2022 yillarda inflyatsiyani boshqarish uchun asosiy stavkani 14-16% oralig'ida ushlab turdi.

Byudjet-soliq (fiskal) siyosat ikki yo'nalishda ishlaydi: davlat xarajatlarni va daromadlarini (soliqlarni) o'zgartirish orqali. Ekspansion fiskal siyosat (xarajatlar ko'payishi yoki soliqlar kamayishi) iqtisodiy tanazzul davrida multiplikator effekti orqali YaIMni oshiradi. Restriktiv fiskal siyosat inflyatsion bosimni pasaytiradi. O'zbekistonda 2020 yilgi pandmiya sharoitida YaIM ga nisbatan 35.2% ga etgan davlat xarajatlari ekspansion fiskal siyosatning yorqin namunasidir [9].

Soliq tizimi bilvosita tartibga solishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. Progressiv daromad solig'i avtomatik stabilizator vazifasini bajaradi: iqtisodiy o'sish davrida soliq yig'imi oshib, ortiqcha talabni cheklaydi; inqiroz davrida esa kamayib, so'rilgan xaridorlik qobiliyatini qaytaradi. O'zbekistonda 2019 yildan joriy etilgan 12% yagona daromad solig'i va 2022 yildan 15% ga tushirilgan QQS stavkasi iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlardir.

2-jadval. Tartibga solish usullarining qiyosiy tahlili²

Mezon	Bevosita usullar	Bilvosita usullar	Tashqi iqtisodiy usullar
Ta'sir ob'ekti	Aniq korxonalar/tarmoq	Yalpi talab/taklif	Tashqi savdo, kapital
Vositalar	Litsenziya, kvota, narx nazorat	Foiz stavka, soliq, subsidiya	Boj, eksport kreditlari
Qo'llanish sharoiti	Inqiroz, favqulodda holat	Normal bozor sharoiti	Tashqi savdo siyosati
Samaradorlik	Tezkor, ammo cheklovchi	Sust, lekin raqobatni saqlaydi	O'rtacha muddatli
O'zbekiston tajribasi	Strategik tarmoqlar nazorati	Soliq imtiyozlari, SSV siyosati	Erkin iqtisodiy zonalar

Bozor iqtisodiyotining tabiiy tendentsiyasi daromadlar tengsizligini kuchaytirish bo'lib, bu ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka xavf tug'diradi. Davlatning qayta taqsimlash vazifasi uchta asosiy kanal orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, transfert to'lovlari: pensiyalar, ishsizlik nafaqalari, bolalar nafaqalari va ijtimoiy yordam dasturlari. Ikkinchidan, subsidiyalari: oziq-ovqat, kommunal xizmatlar va transport uchun belgilanadigan imtiyozli narxlar. Uchinchidan, progressiv soliq tizimi yuqori daromadlilardan ko'proq, kam daromadlilardan kamroq soliq undiradi va bu farqni ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltiradi. O'zbekistonda ijtimoiy himoya 2022 yilda YaIMning 7.4% ini tashkil etdi va «Temiryo'l» platformasi orqali maqsadli yordamni samaradorlashtirish boshlandi.

Tashqi iqtisodiy tartibga solish milliy iqtisodiyotni jahon bozori bilan bog'liqlik nuqtai nazaridan muhim o'ringa ega. Asosiy vositalar: boj

to'lovlari, kvotalar, valyuta kursi siyosati, eksport subsidiyalari va erkin savdo zonalar.

O'zbekiston 2017 yildan boshlab tashqi iqtisodiy siyosatni tubdan o'zgartirdi. Birinchidan, 2017 yil sentabrda valyuta kursi erkinlashtirildi — bu yangi Mirziyoyev davrining eng muhim iqtisodiy islohoti hisoblanadi. Ikkinchidan, bir qator tovarlar bo'yicha import bojlari pasaytirildi va ayrim eksport cheklovlari bekor qilindi. Uchinchidan, «Navoiy», «Urgut», «Ангрен» erkin iqtisodiy zonalarini xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imtiyozlari bilan kengaytirildi. Natijada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2017 yildagi 1.6 mlrd. dollardan 2022 yilda 3.2 mlrd. dollarga oshdi [9].

3-jadval. O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2017–2022)[9]

Ko'rsatkich	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YaIM o'sishi (%)	4.5	5.4	5.8	1.9	7.4	5.7
Inflyatsiya (%)	14.4	17.5	15.2	11.1	10.8	12.3
Ishsizlik (%)	9.3	9.3	9.2	10.0	9.7	9.0
Davlat xarajatlari (YaIM %)	22.1	24.3	28.7	35.2	31.4	30.1
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya (mlrd. USD)	1.6	2.1	2.4	1.8	2.8	3.2

2008 yilgi moliyaviy inqiroz keynsianizmga qissman qaytishni taqozo etdi. AQSh va Yevropa davlatlari yuzlab milliard dollar miqyosida moliyaviy tizimni qutqarish uchun davlat mablag'larini sarfladi. Bu esa monetarizm va erkin bozor konsepsiyasining universalligiga qo'yilgan muhim savol bo'ldi.

Zamonaviy iqtisodiy fikrda «aqli davlat» (smart state) kontsepsiyasi keng tarqalmoqda. Bu model davlatning iqtisodiyotdan to'liq chekinishi yoki haddan ortiq aralashuvini ham rad etib, samarali institutlar va raqobat muhitini shakllantirish orqali bozorni boyituvchi davlatni targ'ib qiladi. M.Mazukkato «Tadbirkor davlat» [7] kontsepsiyasida davlatning innovatsion iqtisodiyotdagi faol rolini - risk kapitalini moliyalashtirish, fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash - nazariy asoslab berdi.

O'zbekiston uchun «aqli davlat» modeli ayniqsa dolzarb ko'rinadi: xususiy sektor rivojlanmagan tarmoqlarda davlat tadbirkorlik rolini o'ynashi, bozor rivojlangach esa chekib olishi maqsadga muvofiqdir. Buning yorqin misoli - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi orqali olib borilayotgan xususiy lashtirish jarayonidir.

Qaysi holatda davlat aralashuvi maqbul? Bu savolga aniq javob yo'q, ammo iqtisodiy nazariya bir qator mezonlarni taklif etadi. Birinchi mezon — bozor muvaffaqiyatsizligining mavjudligi. Agar bozor tashqi ta'sirlarni hisobga olmasa, jamoat ne'matlarini ta'minlay olmasa yoki monopoliyaga moyil bo'lsa, davlat aralashuvi oqlanadi.

Ikkinchi mezon — aralashuv xarajat-foйда tahlili. Davlatning iqtisodiyotga har qanday aralashuvi ma'muriy va iqtisodiy xarajatlarni taqozo etadi. Tartibga solish natijasida olingan ijtimoiy foyda bu xarajatlardan oshib ketsa, aralashuv oqlanadi [8]. Uchinchi mezon — ma'muriy salohiyat. Davlatning tartibga solish quvvati — malakali kadrlar, samarali institutlar va shaffof jarayonlar — tartibga solish sifatini belgilaydi. Zaif institutlar sharoitida keng davlat aralashuvi korruptsiyani kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat va bozor munosabatlarida «hammasini bozorga» yoki «hammasini davlatga» degan mutlaqlashtiruvchi yondashuvlarning ikkalasi ham nazariy va amaliy jihatdan noto'g'ri ekanligi isbotlandi. A.Smitdan Keyns va Fridman orqali zamonaviy neokeynsianizm va institutsional iqtisodiyotgacha bo'lgan nazariy evolyutsiya bir xulosa sari olib keladi: davlat bozor muvaffaqiyatsizliklarini bartaraf etuvchi, raqobat muhitini ta'minlovchi

² Muallif ishlanmasi

va ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlovchi faol, ammo aqlli inst sifatida harakat qilishi zarur.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, 2017-2023 yillardagi islohotlar bevosita tartibga solishdan bilvosita usullarga o'tish, valyuta erkinlashtirish va xususiyashtirish orqali bozor mexanizmini kengaytirish yo'lida muhim qadamlar tashlangan. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari — 2021 yilda 7.4% o'sish islohotlar samaradorligini tasdiqlaydi. Ammo yuqori inflyatsiya, bank tizimining cheklangan

rivojlanishi va ish bilan bandlik muammolari hali hal etilishi kerak bo'lgan masalalar sifatida qolmoqda.

Kelajak uchun tavsiyalar: birinchidan, O'zbekistonda institutsional salohiyatni sud tizimi, mulkchilik huquqi, shartnomalarga rioya mustahkamlash; ikkinchidan, iqtisodiy siklga mos kontrtsiklik fiskal qoidasini joriy etish; uchinchidan, innovatsion iqtisodiyotni davlat mablag'lari bilan qo'llab-quvvatlash va xususiy-davlat sherikligini kengaytirish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Acemoglu, D., Robinson, J.A. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Publishers, New York. 529 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida». Toshkent, 2017.
3. Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. W. Strahan and T. Cadell, London. [O'zbek tilida: Smit A. Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida. Toshkent: Sharq, 2003.]
4. Pigou, A.C. (1920). The Economics of Welfare. Macmillan, London. 4-nashr, 1932.
5. Keynes, J.M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. Macmillan, London. [O'zbek tilida: Keyns J.M. Bandlilik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. — Toshkent: TDIU, 2010.]
6. Friedman, M., Schwartz, A.J. (1963). A Monetary History of the United States, 1867–1960. Princeton University Press, Princeton. 888 b.
7. Mazzucato, M. (2013). The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. Anthem Press, London. 266 b.
8. North, D.C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, Cambridge. 152 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariS. (2023). O'zbekiston statistik yilnomasi – 2023. Toshkent: Statistika qo'mitasi. URL: www.stat.uz